

Impact Factor: 4.972

ISSN: 2181-0788

DOI: 10.26739/2181-0788

www.tadqiqot.uz

IJC

INTERNATIONAL JOURNAL OF CONSENSUS KONSENSUS XALQARO JURNALI



VOLUME 4, ISSUE 2

2023

KONSENSUS XALQARO JURNALI

4 JILD, 2 SON

INTERNATIONAL JOURNAL OF CONSENSUS
VOLUME 4, ISSUE 2



Bosh muharrir | Chief Editor:

JO'RAYEV NARZULLA QOSIMOVICH

siyosiy fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi

Bosh muharrir o'rinbosari: Deputy Chief Editor:

SAIDOV SANJAR SHAVKATOVICH

siyosiy fanlar doktori (DSc),
O'zbekiston Respublikasi

Bosh muharrir o'rinbosari: Deputy Chief Editor:

ZAMONOV ZOKIR TURG'UNOVICH

siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston Respublikasi

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD

ALIMARDONOV TO'LQIN
siyosiy fanlar doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

ANITA SENGUPTA
siyosiy fanlar doktori, professor
Hindiston Respublikasi

BAYDAROV ERKIN
falsafa fanlari nomzodi, professor,
Qozog'iston Respublikasi

GREGORY GLEASON
siyosiy fanlar doktori, professor
Amerika Qo'shma Shtatlari

FARMONOV RAHMON
tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

JO'RAYEV SAYFIDDIN
siyosiy fanlar doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

JENNIFER MURTAZASHVILI
siyosiy fanlar doktori, professor
Amerika Qo'shma Shtatlari

MAMADAZIMOV ABDUGANI
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent,
Tojikiston Respublikasi

MADAYEVA SHAXNOZA
falsafa fanlar doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

KHOLMUMINOV JAFAR
falsafa fanlar doktori,

NURMATOVA GULSAYRA
siyosiy fanlar doktori, professor,
Qirg'iziston Respublikasi

QIRG'IZBOYEV MUQIMJON
siyosiy fanlar doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

QO'CHQOROV VAHOB
siyosiy fanlar doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

QODIROV ANVAR
falsafa fanlar doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

ONO MASAKI
falsafa doktori, professor
Yaponiya

TOLIPOV FARXOD
siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
O'zbekiston Respublikasi

VASILIIY NIKULENKO
tarix fanlari nomzodi, dotsent,
Rossiya Federatsiyasi

CHANDER SHEKXAR
falsafa doktori, professor,
Hindiston Respublikasi

Mas'ul kotib | Responsible secretary:
TO'YCHIYEVA RA'NO
O'zbekiston Respublikasi

PageMaker | Sahifalovchi: Xurshid Mirzahmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000


Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Юсуф Исмаилов СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР КОМПАРАТИВИСТИКАНИНГ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА (Германия ва Ўзбекистон қиёсий мисолида).....	5
2. Санжар Саидов ГЛОБАЛ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАРДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ҲОЯСИНИНГ УНИВЕРСАЛЛАШУВИ.....	11
3. Абдурашид Анваров СИЁСИЙ ОНГ ВА СИЁСИЙ МАДАНИЯТНИНГ НАМОЁН БЎЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	21
4. Maftuna Rajabova GLOBALLASHUV VA TOLERANTLIK: SIYOSIY DISKURS.....	26
5. Sirojiddin Azimov XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA DAVLAT IMIJINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	35
6. Аббосхонова Нилуфархон Аббосхон қизи СИЁСАТШУНОСЛИКДАГИ ЯНГИ ФАН ЙЎНАЛИШИ – СИЁСИЙ МИГРАЦИОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ АҲАМИЯТИ.....	40
7. Саидова Сайёра Алишер қизи ҒАРБ МАМЛАКАТЛАРИДА ДИН ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ.....	46

JOURNAL OF INTERNATIONAL CONSENSUS

Rajabova Maftuna Ikrom qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti

GLOBALLASHUV VA TOLERANTLIK: SIYOSIY DISKURS

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8332382>

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada globallashuv jarayonlarida tolerantlikning ahamiyati siyosiy diskurs asosida ochib berilgan. Shuningdek, maqolada mazkur mavzuni xalqaro munosabatlar kesimida shakllantirish muammosi o‘rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlari: globallashuv, siyosiy globallashuv, siyosiy jarayonlar, tolerantlik, intolerantlik, tendensiyalar, oltin oraliq konsepsiyasi, multikulturalizm, madaniyatlararo muloqot, ommaviy madaniyat, virtual ijtimoiy munosabatlar, g‘oyaviy tahdidlar, siyosiy tizim, xalqaro munosabatlar.

Rajabova Maftuna Ikrom qizi,

Uzbekistan State University of World Languages
PhD student

GLOBALIZATION AND TOLERANCE: POLITICAL DISCOURSE

ABSTRACT

The scientific article reveals the importance of tolerance in globalization processes on the basis of political discourse. Also, in the article, the problem of forming this topic in the field of international relations is studied and analyzed.

Key words: globalization, political globalization, political processes, tolerance, intolerance, trends, concept of the golden interval, multiculturalism, intercultural communication, mass culture, virtual social relations, ideological threats, political system, international relations.

Ражабова Мафтуна Икром кизи,

Докторант Узбекского государственного университета мировых языков

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ТОЛЕРАНТНОСТЬ: ПОЛИТИЧЕСКИЙ ДИСКУРС

АННОТАЦИЯ

В научной статье раскрывается значение толерантности в процессах глобализации на основе политического дискурса. Также в статье исследуется и анализируется проблема формирования данной темы в сфере международных отношений.

Ключевые слова: глобализация, политическая глобализация, политические процессы,

толерантность, интолерантность, тенденции, концепция золотого интервала, мультикультурализм, межкультурная коммуникация, массовая культура, виртуальные социальные отношения, идеологические угрозы, политическая система, международные отношения.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

XXI asr dunyo miqyosidagi global jarayonlarni mohiyatini chuqur anglash, ularning sabablarini tahlil qila olish va ularning oqibatlarini oldindan ko'ra olishni talab qiladi. Chunki globallashuv hodisalari jamiyat hayotining barcha sohasiga kirib kelib, yer yuzidagi barcha davlatlar hayotida aks etmoqda. Dunyo fan va texnika taraqqiyoti, global axborot tizimi va uning tezligini muttasil ortib borayotganligi, dunyo miqyosidagi hodisalarga to'g'ri baho berishni talab qilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatdagi insonlar globallashuv fenomeni obyektiv real jarayon sifatida mavjud bo'lishini tushunmasa, bugungi taraqqiyot tezlashuvi va axborot xavfi nimaligini tushuna olmaydilar.

Bugungi kunda zamonamizning global muammolari deb ataluvchi muammolarni eshitmagan odamni uchratish qiyin. Bu muammolarga demografik, sog'liqni saqlash, ta'lim, rivojlanish, energetik, xomashyo muammolari, urush va tinchlik muammosi, ekologiya va boshqalar kiradi.

Global muammolar – bu shunday muammolarki, ular butun insoniyatning manfaatlariga daxil qiladi, uning kelajagiga xavf soladi hamda ular butun xalqaro hamjamiyatning ishtiroki bilangina hal etilishi mumkin. XX asr oxiriga kelib dunyo iqtisodi, milliy iqtisod va siyosatning majmuasi sifatida integratsiyalashib, yangi sifat va yangi bosqichga, global bosqichga o'tdi. Bu bosqich, dunyoning muhim ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarini qamrab olib, iqtisodiy rivojlanish va modernizatsiyalashga sabab bo'ldi. Ayni paytda globallashuv dunyo iqtisodida yangicha qarama – qarshiliklar va muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Hozirgi vaqtda dunyoning barcha mamlakatlari turli darajada globallashuv jarayoni bilan bog'lanib ketgan, shu narsa aniqki, hech bir mamlakat bu jarayondan ajralib qololmaydi.

METODLAR VA O'RGANILGANLIK DARAJASI.

So'nggi yillarda tolerantlik kategoriyasi va uning xalqaro munosabatlar tizimida tutgan muhim o'rnini tadqiq etish zamonaviy ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va tarix fanlari oldida turgan dolzarb ilmiy yo'nalishga aylanib ulgurgan. Mazkur kategoriya mahalliy olimlarimiz tomonidan ko'proq falsafiy va tarixiy nuqtai nazardan o'rganilgan hamda tahlil qilingan bo'lib, bunga R.Murtazayeva, N.Karimov, O.Musayev, M.Xajiyeva va boshqalarning ilmiy izlanishlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Ammo, tolerantlik kategoriyasi mahalliy siyosatshunos olimlar tomonidan deyarli o'rganilmagan. Chet el tadqiqotchilaridan L.V.Bayeva (Толерантност: идея, образы, персоналии) va L.K.Mullagaliyeva (Язык толерантности) kabilarning ilmiy ishlarida esa mazkur kategoriyaning tarixiy, ijtimoiy-falsafiy va siyosiy aspektlari ochib berilgan. Shuningdek, tolerantlik kategoriyasini ijtimoiy-siyosiy jihatdan tahlil qilishda turli xil xalqaro hujjatlarni va xalqaro siyosiy institutlarning faoliyatini o'rganish hamda tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu bilan birga yuqorida ko'rsatilib o'tilgan mahalliy va chet el olimlarining ilmiy izlanishlarida globallashuv va tolerantlik jarayonlari bir-biriga bog'langan holda ham ilmiy tahlilga tortilgan hamda mazkur jarayonlar bilan bog'liq dolzarb muammolar o'rganilgan.

Mazkur ilmiy maqolani yoritishda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash va boshqa metodlardan foydalanilgan hamda har tomonlamalik, tarixiylik tamoyillariga tayanilgan holda ilmiy tahlil qilingan.

TADQIQOT NATIJALARI.

XXI asr o'zining globallashuv, raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivoji va ijtimoiy fikrning yangillanishi kabi bir qator omillari bilan birga, insoniyat oldiga yangidan-yangi tahdidlarni ham kun tartibiga olib chiqmoqda. Urush va tinchlik masalasi, ekstremizm, terrorizm, separatizm kabi noinsoniy mafkuralar va "ommaviy madaniyat"ning g'oyaviy tahdidlari, turli yuqumli kasalliklarning tarqalishi ortidan epidemiologik vaziyatning keskinlashuvi hamda global iqtisodiy inqirozning kuchayishi kabi omillarni ta'kidlash mumkin[1].

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la chetda qolgan birorta ham davlat yo'q, deb ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni hohlamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq tushib qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni tan olish keraki, bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan ham shunday chambarchas bog'lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma'noda, globallashuv hayot suratlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha bo'lib, bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun mazkur hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan barobar bo'ladi[2].

Globallashuv (globalizatsiya) – lotincha “glob” so'zidan olingan bo'lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurrallashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer shari, kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. Mazkur atama dastlab 1960-yil Giddins tomonidan foydalanilgan. Bu atama XX asrning 90-yillarigacha deyarli foydalanilmagan. 1985-yilga kelib amerikalik sotsiolog R.Robertson “globallashuv” atamasiga tushuncha bergan. Globalizatsiya atamasi birinchi bo'lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981-yildan beri qo'llanilib kelingan. Ammo bu so'zning to'liq ma'nosi, konsepsiyasi 1990-yilning yarmida amerikalik olim Ch.T.Rassel tomonidan to'liq ochib berilgan.

“Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983-yili “Harvard Business Review” jurnalida chop etilgan maqolasida qo'llagan. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqadigan turli-tuman mahsulot bozorining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan. Mazkur ta'rifda globallashuv jarayonining iqtisodiy tomonlariga e'tibor berilgan. Globallashuv tushunchasi serqirra tushuncha hisoblanib, keng ma'noda mazkur tushuncha milliy, huquqiy va siyosiy muammolarni butun jahon miqyosidagi yangi xo'jalik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda tabiiy-biologik global muhitga ta'sir etib borishidir. Tor ma'noda esa iqtisodiy va xo'jalik tizimining modifikatsiyasi (o'zgarishi) oqibatida yagona bir butun umumjahon geoiqtisodiy jarayonning paydo bo'lishidir. Globallashuv bugungi kundagi jahon hamjamiyatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va axborot almashinuvining chuqurlashuvi jarayonlari bilan izohlanadigan, chegaralarning yuvilib ketishi, xalqaro hamjamiyat aloqalarining chuqurlashishini o'zida aks ettiradigan tushuncha sifatida namoyon bo'ladi[3].

Bugungi kundagi globallashuv jarayonlarining elementlari paydo bo'lishi xususida bir qancha nazariyalar va qarashlar shakllangan bo'lib, xususan, “Ikki qutubli dunyo” tizimining parchalanishi bilan boshlanayotgan yangi davr yoki yangi qutubli xalqaro hamkorlikka asoslangan davrni bugungi kunda globallashuv davrining eng yuqori darajasi deb ko'rsatiladi. Bu xususida olimlarning qarashlari bilan tanishadigan bo'lsak, dastlab 1991-yillardan keyin ya'ni Sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishidan keyin boshlangan yangi davrni tushuntirishda amerikalik mashhur olim Frensis Fukuyamaning “Tarixning imtihosi” bilan boshlandi. Olim mazkur asari orqali bundan keyingi davr G'arb liberal demokratiyasi rivojlangan davr bo'ladi ya'ni g'arbone o'ziga xos xususiyatlar, liberal demokratik mafkuraning tamoyillarini o'zida aks ettiradigan zamonaviy davrga qadam qo'yildi va tarix imtihoga yetdi yoki tugallandi, degan nazariyani ilgari suradi[4].

Amerikalik mashhur siyosatshunos olim Samuel Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” asarida ham globallashuv xususida bir qancha nazariyalar va qarashlar mavjud. Mazkur asari orqali olim o‘zining bir qator fikrlarini ilgari suradi, xususan, yangi davr ya’ni sovuq urush tugaganidan keyingi ko‘p qutubli dunyoda butun dunyo hamjamiyati bir nechta sivilizatsiyalarga, alohida-alohida yo‘nalishlarga munosabatda bo‘ladi, degan xulosalarni ilgari suradi, prognoz qiladi ya’ni dunyo sakkizta umumiy, madaniy-etnik, diniy va boshqa omillar bilan umumlashadigan sivilizatsiyalardan iborat bo‘ladi va bugungi dunyodagi globallashgan davrdagi barcha munosabatlar mazkur sakkizta sivilizatsiyalar atrofidagi munosabatlarni o‘zida aks ettiradi, degan qarash shakllandi[5]. Yana bir amerikalik siyosiy arbob, siyosatshunos olim Zbignev Bjezinskiyning “Buyuk shaxmat taxtasi” asari bor. Mazkur asar 90-yillarda butun jahon hamjamiyati tomonidan juda katta qiziqish bilan kutib olindiki, bu asar orqali Bjezinskiy yangi davr xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan ya’ni yirik mamlakatlar, xususan, AQShning Yevroosiyo mintaqasidagi siyosati, strategiyasi qanday bo‘lishi kerak, degan bir savollarga o‘ziga xos javob berishga harakat qiladi hamda bu orqali bugungi global davrdagi siyosiy jarayonlarning xarakteri, tendensiyalari, rivojlanish istiqbollari ko‘rsatib berishga intilgan.

Yuqoridagi olimlarning qarashlari qaysidir ma’noda o‘tgan davrlar mobaynida o‘z tasdig‘ini topdi va ayrim masalalarda haligacha bahsli masalalar, munozaralar va fikr-mulohazalar bildirilib kelinadi.

Bashariyat XX asrni yakunlab, uchinchi ming yillikka qadam qo‘yganiga mana yigirma yildan oshdi. Bu ming yillikda davlatlar, xalqlar va umuman insoniyat jamiyatining, jahon va ayrim mamlakatlarning taqdiri qanday bo‘ladi, xalqaro munosabatlar qaysi yo‘nalishda rivoj topadi, mintaqaviy, etnik, diniy milliy konfliktlar soni kundan-kunga ko‘payib borayotgan yer yuzida vaziyat qanday bo‘ladi? Bu masalalarning barchasi o‘zining xolis va batafsil ilmiy javobini kutmoqda. Insoniyatning kelajagi to‘g‘risida har xil farazlarni o‘rtaga qo‘yayotgan turli ilmiy doiralar, siyosatshunoslar, tarixchilar, faylasuflar, futurologlar, astrologlar va boshqalar XXI asrda insoniyatning taqdiri qanday bo‘lishi haqida har kuni turli-tuman ilmiy farazlarni ilgari surmoqdalar. Global kun tartibotini, zamonaviy geosiyosiy va xalqaro munosabatlarni yaxshilash uchun ayrim tadqiqotchilar liberal demokratik qadriyatlarini rivojlantirishni taklif qilsalar, boshqalar insoniyatga tahdid solayotgan milliy-etnik va shu asosda kelib chiqadigan etnik ziddiyatlar, madaniyatlararo konfliktlar, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy va ekologik vaziyatlarning keskinlashuviga qarshi turishning turli xil yo‘llarini izlamoqdalar. Biroq, geosiyosatchi olim V.A.Dergachevning so‘zlari bilan aytganda, insoniyatga xavf tug‘dirayotgan, jadal rivojlanayotgan, o‘zgaruvchan va globallashib borayotgan jahon hodisa va jarayonlari chuqur geosiyosiy tafakkurga, jiddiy globallashuv va professional tadqiqotlarga asoslangan javoblarga ehtiyoj sezayotgani ularning hammasiga xos hususiyatdir. Uning fikricha, XXI asrda garchi ilmiy texnika taraqqiyoti rivojlanishning yuqori darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsada, yer kurrasi va har bir mamlakatda sodir bo‘ladigan global o‘zgarishlar to‘g‘risida mantiqiy va malakali fikr yuritish hamda xulosa chiqarish imkonini beradigan aniq va to‘liq fan asoslari yaratilmagan.

Ilmiy asoslari va asosiy tamoyillariga hali XX asrning birinchi yarmidayoq asos solingan va bugungi kungacha unchalik jiddiy o‘zgarishlarga uchramagan geosiyosat davlatlararo aloqalarga, bu esa, o‘z navbatida, xalqaro munosabatlarga amaliy ta’sir o‘tkazib kelmoqda. O‘z milliy va ijtimoiy manfaatlarini ilgari surar ekan, har bir davlat bu bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarida jahon darajasiga ko‘tarilmoqda, ichki va tashqi konfliktlarni, boshqa geosiyosiy vazifalarni hal etish uchun o‘z milliy xavfsizligi doktrinasi negizida ham xalqaro imkoniyatlardan, ham milliy imkoniyatlardan hamda kuch-qudratidan foydalanishga harakat qilmoqda.

Umuman, o‘rta asrlardan to hozirgi kungacha buyuk davlatlar, ular tomonidan barpo etilgan imperiyalar, strategic maqsadlar yo‘lida birlashadigan davlatlar ittifoqlari, boshqa jahoniy kuchlar xalqaro munosabatlar ruhi va dunyo siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab bergan va belgilab bermoqda. Haqiqatda ayni shu davlatlar bevosita yoki bilvosita o‘z azmu irodasini boshqa davlatlarga zo‘rlab o‘tkazmoqdalar, jahonning geosiyosiy xaritasini tuzmoqdalar, uning tuzilmasini shakllantirmoqdalar, shu tariqa ular yashash, xalqaro yurish-turish qoidalarini belgilab bermoqdalar. Ular mavjud moddiy va ma’naviy boyliklarni, geoiqtisodiy va strategik xom ashyo resurslarini

taqsimlash, geosiyosiy ta'sir o'tkazish sohasini, jahon miqyosida tovarlar va xizmatlar narxini belgilashda asosiy vazifani hal etmoqdalar. Boshqa davlatlarga kelsak, ular paydo bo'lgan vaqtdan boshlab bugungi kungacha o'z milliy manfaatlarini ta'minlash yo'lida har biri o'z-o'zicha yoki boshqa davlatlar bilan birgalikda mustaqillik, erkin hayot, buyuk davlatlardan himoyalani uchun kurash olib bormoqdalar[5].

Aynan yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlar globallashuv va tolerantlik jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayonlar ekanligini ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, geosiyosiy jarayonlar ham mazkur tushunchalar bilan aloqador bo'lib, hozirgi kunda bu jarayonlar bilan bog'liq muammolar o'zining ilmiy yechimini kutmoqda. Chunki globallashuv va geosiyosiy jarayonlarni kuzatar ekanmiz, mazkur jarayonlarning sodir bo'lishi natijasida tolerantlikning buzilishi hamda yemirilib borishini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy davrning yorqin belgilaridan biri migratsiya, globallashuv va insoniyat integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan madaniy, konfessional, etnik an'analarning aralashib ketishidir. Ko'pgina xalqlar uchun ochiqlik davri ijobiy va salbiy oqibatlariga olib keladigan turli xil o'zgarishlar omiliga aylandi.

Bugungi kunda millatlarning o'zaro muloqoti va o'zaro tolerantlikning rivojlanishi natijasida demografik, ekologik ilmiy-texnikaviy, axborot, siyosiy jarayonlarning rivojlanishiga va dunyo sayyoramizda yashovchi barcha xalqlarning butun birligiga olib keldi. Uni umumiy resurslar, yuzaga kelayotgan global muammolar, axborot maydoni, umumiy fan va texnologiya birlashtiradi. Bu barcha urushlarni, davlatlararo to'qnashuvlarni, turli xil nizolarni, siyosiy rejimlarning qarama-qarshiliklarini to'xtatish va oldini olishga hamda murosaga keltirishga xizmat qiladi. Lekin turli xil xalqlarning o'zaro ta'siri va yaqinlashuvi natijasida yuzaga keladigan turli xil salbiy oqibatlar, muloqot va hamkorlikka intilishning yo'qligi, tomonlarning o'zaro hurmati va tushunishning sustligi, an'anaviy qadriyatlardagi farq va shunga o'xshash turli xil omillar millatlararo muloqot va tolerantlikka katta salbiy ta'sir ko'rsatadi[6].

Mazkur muammoni hal qilish uchun prinsipial jihatdan yangicha bilimlar tizimini yaratish zarur. Jamiyat zo'ravonlikgacha bo'lgan har qanday xatti-harakatga befarqlik yoki liberal munosabatda emas, balki har bir xalq madaniyatining eng yaxshi yutuqlarini hurmat qilishi va boshqasining so'z erkinligiga asoslangan yangi aloqa tizimiga muhtoj bo'ladi. Buni amalga oshirish uchun esa xalqaro munosabatlar tizimida millatlararo muloqot va tolerantlikni shakllantirish hamda amalga oshirish zarur.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib, yangilanib borayotgan dunyoda o'zaro mehr-oqibat, ishonch va hamdardlikka asoslangan tolerantlik omilining o'rni va roli nihoyatda kattadir. Tolerantlik – bu har bir muayyan shaxs, uning fikri, nuqtai nazarini, har qanday boshqa bir madaniyat, dunyoqarashni, e'tiqodni ular qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilishga hozirlikni anglatuvchi murakkab fenomen hisoblanadi. Shuningdek, u bir-biriga o'xshamagan insonlarni birgalikda yashashga intilishini ham o'zida namoyon etadi. Tolerantlik davlat va jamiyat hayotining ajralmas bir qismi bo'lib, inson va uning taraqqiyoti tarixida muhim rol o'ynaydi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, globallashuv kategoriyasi eng avvalo butun dunyo miqyosida yoyilib, o'zaro tarmoq aloqalari, kommunikatsiya tizimi, davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va jahon tartibotini yangi yo'sinda o'zgarib borayotgan umumjahon, umumsayyora tizimga o'tishi hisoblanadi. Aynan shu omillar globallashuv jarayonlarini tolerantlik jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib beradi. Chunki tolerantlik jarayonlari ham globallashuv jarayonlari singari, millatlararo, xalqaro, umumjahon miqyosidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tolerantlik ham globallashuv singari universal atama hisoblanadi. Juda ko'p olimlar, masalan, Samuel Xantengton, E. Gidns, Kastes, Volters va boshqa ko'plab zamonaviy olimlar globallashuv bilan tolerantlik jarayonlarini bir – biriga bog'lashga harakat qilganlar[7]. Aynan bugungi kunda globallashuv rivojlanayotgan paytda, tolerantlikni saqlash va uni mustahkamlash uchun "Madaniyatlararo kommunikatsiya" degan tushuncha ham paydo bo'lgan. Shundan kelib chiqqan holda "Madaniyatlararo muloqot" bugun qanday bo'lishi kerakligini tushunish mumkin. Bu biron bir mamlakat hududida yashovchi turli millat, elat, dinga mansub bo'lgan hamda turlicha madaniyatga mansub bo'lgan odamlar o'rtasidagi to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yish hisoblanadi. Bu

muloqot qaysidir ma'noda, o'sha davlatdagi beqarorlikning oldini olish, turli xil milliy nizolarning oldini olishga ham juda katta xizmat qiladi.

Aynan shu madaniyatlararo muloqot fenomenini ham aytib o'tishimiz lozim bo'ladi. Bu xususida, bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Masalan, bugungi kunda fanda "Ijtimoiy munosabatlar va virtual ijtimoiy munosabatlar" degan tushunchalar mavjud. Aynan bu tushunchalar dunyoda axborot texnologiyalarining rivojlanishi va keng tarqalishi hamda o'zining yuqori darajasiga ko'tarilishi natijasida jamiyatimizda yaqqol namoyon bo'lmoqda. "Virtual ijtimoiy munosabatlar" tushunchasi ya'ni, bugungi kunda odamlar bir – birlari bilan to'g'ridan – to'g'ri munosabatlarga kirishishdan ko'ra, ko'proq o'sha ijtimoiy tarmoqlarda, internetda muloqot qilishni afzal ko'rmoqdalar, bu esa o'z navbatida virtual ijtimoiy munosabatlar hamda virtual makondagi tolerantlik madaniyati degan tushunchalarni ham keltirib chiqarmoqda, ya'ni virtual tarmoqlardan foydalanishning ham o'zining qonun – qoidalari bor, o'zining tolerantlik odob va axloq qoidalariga rioya qilish kerak.

Aynan shu jihatlar ham globallashuvning bir elementi, ham zamonaviy jihatdan tolerantlik bilan bog'laydigan jihatlari hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan esa, globallashuv keltirib chiqarayotgan yangi bir fenomenlardan biri – bu "Multikulturalizm" ya'ni "Ommaviy madaniyat" hisoblanib, bu fenomen globallashuvning bir mevasi desak ham bo'ladi.

Aynan "Ommaviy madaniyat" bugungi kunda tolerantlik bilan qanday bog'liqligi mavjud. Ayniqsa, "Ommaviy madaniyat" keng tarqalgan paytda, milliy madaniyat yemirilib borishi kuzatiladi. "Ommaviy madaniyat" o'zida hech qanday millat, din va boshqa shunga o'xshash omillarni tan olmaydi va ko'proq o'sha zamonaviy sharoitda paydo bo'lgan jarayonlardan biri hisoblanadi. Bunday olib qaraydigan bo'lsak, "ommaviy madaniyat"ning ham ijobiy, ham salbiy taraflari bor.

Masalan, zamonaviy kiyinish madaniyati, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va boshqalar – bu "ommaviy madaniyat"ning ko'rinishi hisoblanadi. Lekin bugungi kunda paydo bo'layotgan ya'ni bir jinsli nikohlar va boshqa shunga o'xshash omillar ham, "ommaviy madaniyat"ning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Shuning uchun ham odamlar "ommaviy madaniyat"ning salbiy oqibatlarini chuqur anglab yetishlari lozim.

Yana bir globallashuv bilan aloqador bo'lgan fenomen – bu ekstremizm fundamentalizm va terrorizm masalalari hisoblanadi. Masalan, turli terror guruhlar safida bugungi kunda turli millat vakillari ham, aynan misol uchun ISHID tashkilotining tarkibida 50 dan ortiq mamlakat vakillari ishtirok etar ekan, ya'ni bu ham globallashuv sharoitida chegaralarni, umuman, mintaqalarni bir – biridan ajratib turishni imkoniyati yo'q va bu holatda faqatgina jamiyatda sog'lom muhitni yaratish, tolerant muhitni yaratish, bir so'z bilan aytganda, birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: "Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish eng yaxshi yo'llardan biri" deya ta'kidlaydilar. Aynan bu yerda ma'rifat – bu tolerantlikning o'zi hisoblanadi.

Globallashuv – bu muqarrar va misli ko'rilmagan jarayondir. Uning afzalliklari va kamchiliklari barchani tashvishga soladi va bu haqida o'ylamaslik mumkin emas. Keling, ularning eng muhimlarini ko'rib chiqaylik. Globallashuv jarayonining ijobiy oqibatlari:

- zaifmamlakatlar iqtisodiyotiga investitsiyalar hisobiga umuman sayyoramizdagi hayot sifatini yaxshilash (ushbu tendensiya amalga oshirilish bosqichidir);

- yashash joyini va turmush tarzini erkin tanlash imkoniyati (amalga oshish jarayonida);

- paydo bo'lgan muammolarga tezda javob berishga, ularni yanada samarali hal qilishga imkon beradigan yagona axborot makonini yaratish (amalga oshirish jarayonida):

- tinchlik va inson huquqlarini mustahkamlashga hissa qo'shadigan xalqaro tashkilotlarni yaratish (masalan, "tinchlikni ta'minlash" huquqiga ega bo'lgan BMT, Xalqaro sud, YUNESKO, Xavfsizlik Kengashi):

- dunyo bo'ylab yangi texnologiyalarning tez tarqalishi, umuman vaqt va kuchni tejayotgan muhim texnologik yutuqlar:

- global muammolarni hal qilishda jamoaviy ishtirok etish, ularni bitta davlat doirasida hal qilishning iloji yo‘q:

- ta‘lim tizimining integratsiyasi, turli mamlakatlarda o‘qish imkoniyati, jahon hamjamiyatining barcha vakillari uchun madaniy yutuqlardan foydalanish;

- madaniy urf – odatlar, yutuqlar almashinuvi, tajriba almashish va boshqalar.

Biroq, globallashuv ham katta xavf tug‘diradi. Avvalo, quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- davlatlarning mustaqil tashqi va ichki ishlarini yo‘qotishi:

- ichki siyosatiga aralashish va kuchliroq davlatlar tomonidan siyosiy qarorlarni yuklash:

- transmilliy kompaniyalar o‘sishi fonida kichik va o‘rta biznesning vayron bo‘lishi:

- davlatlarning iqtisodiy mustaqilligini yo‘qotish:

- Shimoliy va Janubiy mamlakatlarning notekis rivojlanishi natijasida vujudga kelgan ijtimoiy ziddiyatlarning o‘sishi (Janubiy Koreya va Shimoliy Koreya o‘rtasidagi ziddiyatlar):

- ommaviy ko‘chish sharoitida milliy mamlakatlarning yo‘q qilinishi (birinchi navbatda til, an‘analar, qadriyatlar):

- ommaviy madaniyatning barcha davlatlarga ommaviy axborot vositalari, internet, sun‘iy yo‘ldosh aloqalari va boshqalar orqali tarqalishi, sayyoramiz aholisini reklama orqali manqurtga aylantirish, fuqarolarning ongini boshqarish imkoniyati:

- ijtimoiy hayotning barcha tizimlarini, birinchi navbatda, ta‘lim, ishlab chiqarish, iste‘mol va boshqalarni standartlashtirish va tekislash, shu kabi milliy jarayonlarning afzalliklari va imkoniyatlarini yo‘q qilish.

Aynan globallashuv jarayonlarining ijobiy va salbiy jihatlarida ham tolerantlikning rivojlanishi yoki yemirilib borishini kuzatishimiz mumkin.

So‘nggi besh yilda xalqaro maydonda ro‘y bergan hodisalarni, siyosiy jarayonlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, jahon miqyosida va xalqaro munosabatlarda misli ko‘rilmagan darajada turli xil hodisalar hamda o‘zgarishlar ro‘y berganini kuzatishimiz mumkin.

2019-yilda dastlab Xitoyda paydo bo‘lib, keyin butun dunyoga tarqalgan va haligacha to‘liq davosi topilmagan “Koronavirus” (Covid-19) pandemiyasi butun dunyoga katta zarar keltirdi hamda xalqaro munosabatlarga ham misli ko‘rilmagan darajada ta‘sir ko‘rsatdi. Mazkur hodisani tahlil etadigan bo‘lsak, koronavirus pandemiyasi paydo bo‘lgan dastlabki kunlarda butun dunyoda xitoyliklarga nisbatan agressiv munosabat kuzatildi. Aynan mazkur holatda millatlararo tolerantlikning buzilishini ko‘rishimiz mumkin. Chunki koronavirusning paydo bo‘lishi va butun dunyoga tarqalishiga “xitoy” millatini aybdor qilish kerak emas, bunga aybdor sifatida qaysidir bir hukumat tepasida turgan siyosiy doiralarni aybdor sanash haqiqatga yaqin bo‘ladi.

2021-yil mart oyidan boshlab Afg‘oniston bo‘ylab hududlar Tolibon hukumatiga o‘ta boshladi. 2021-yil 30-avgustda AQSh hukumati Afg‘onistondan o‘zining harbiy kuchlarini olib chiqib ketdi va yigirma yillik harbiy harakatlar shu tariqa poyoniga yetdi. Endilikda, mamlakatda Tolibon hukumron, mamlakat ko‘p sohalarida dunyo bilan uzilib qolgan va oradan bir yil o‘tib ham Tolibon hukumati birorta davlat tomonidan tan olinmagan. Xalqaro hamjamiyat, BMT, Afg‘oniston bilan chegaradosh davlatlar va dunyoning yetakchi davlatlari mazkur hodisa yoki jarayonga o‘zlarining pozitsiyalarini bildirib o‘tdilar. Umumiy mazmunda mazkur pozitsiyalar quyidagilarni tashkil qildi: Afg‘onistondagi Tolibon hukumatini barcha xalqaro terrorchilik tashkilotlari bilan aloqalarini uzish uchun o‘zining qa‘tiy irodasini namoyon etishi zarurligi, Afg‘onistonning xalqaro maydonda yakkalab qo‘yilishi gumanitar vaziyatning yanada yomonlashuviga olib kelishi bois bunga yo‘l qo‘ymaslik muhimligi, Rossiya va Xitoy asosan Afg‘onistonning xorijdagi muzlatilgan aktivlarini tezroq qaytarish, Afg‘oniston xalqiga zudlik bilan gumanitar yordam berish masalalarida fikr bildirdilar, AQSh hukumati aktivlarni qaytarish bo‘yicha Afg‘oniston hukumati bilan muzokaraga kirishishga tayyor ekanligini bildirdi va AQSh vakili Afg‘onistonda Tolibon hukumati avvalgi xatolarini takrorlamasligini bildirdi hamda inson huquqlari, ayollar huquqlarini ta‘minlash borasidagi harakatlarini jadallashtirishi zarurligi.

Tolibon hukumati jahon hamjamiyatining yuqoridagi pozitsiyalariga nisbatan quyidagi umumiy xulosalarini yoki pozitsiyasini bildirib o‘tdi: Tolibon hukumati o‘z bo‘yniga olgan barcha va‘dalarini bajarayotganligi, endi AQSh ham va‘dalarini bajarib, muzlatilgan pullarni qaytarishi

kerakligini, Tolibon hukumati qisqa muddat ya'ni o'n bir oy ichida mamlakatda xavfsizlikni ta'minlay olganligi va korrupsiyani deyarli yo'q qilganliklari, siyosiy va harbiy dushmanlarning barchasiga amilitsiya e'lon qilindi, Afg'oniston tarixida ilk bor tolerantlik siyosati e'lon qilinganligi, ular o'z kuch tuzilmalarini qo'shni davlatlarga yoki afg'on xalqiga qaratmaganliklari va barcha davlatlarni Afg'onistonga investitsiya kiritishlari muhimligi, AQShda muzlatilgan aktivlar noqonuiy harakat ekanligi, muzlatilgan pullar mamlakatda iqtisodiy qoloqlik va kambag'allikka sabab bo'layotganligi[8].

Ammo Afg'onistonda Tolibon hukumati haligacha jahon hamjamiyatiga bergan va'dalari va majburiyatlarini bajargani yo'q. BMT bergan ma'lumotlarga qaraganda, Tolibon hukumati mamlakatdagi deyarli barcha xorijliklar va hukumatga qarshilik qilayotganlarga kuchli bosim o'tkazmoqdalar hamda ularni ommaviy qatl qilish holatlari kuzatilmoqda, mamlakatda qashshoqlik, siyosiy beqarorlik, taraqqiyotdan ancha orqada qolish, inson huquqlari va tolerantlikning buzilishi kuchaymoqda. Ayniqsa, hukumat xalqaro bosim va majburiyatlarga qaramasdan, ayollar huquqlarini buzishni yoki yo'q qilishni kuchaytirmoqda. Shu boisdan ham Tolibon hukumati 2021-yil 7-sentabrda jahon hamjamiyatiga Afg'oniston Islom Amirligi tuzilganligini e'lon qilgan bo'lsada, haligacha xalqaro hamjamiyat va birorta davlat tomonidan tan olinmadi.

2022-yil 24-fevral kuni Rossiya Ukrainaga nisbatan harbiy harakatlarini boshladi. Mazkur urush boshlanganiga bir yarim yil bo'ldi va haligacha to'xtagani yo'q hamda bu urush xalqaro hamjamiyat va jahon mamlakatlarini tashvishga solib, katta zarar keltirmoqda. Shuningdek, urush xalqaro munosabatlarning keskinlashishiga olib kelmoqda. Mazkur urushning asosiy sabablari yoki maqsadi sifatida geosiyosiy va geostrategic maqsadlarni hamda manfaatlarning to'qnashuvini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Urushayotgan davlatlar orasida ommaviy qirg'in qurollari va yadro qurollarining ishlatilishi xavfining mavjudligi esa insoniyatga xavf solayotgan global muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan so'nggi besh yilda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan global va siyosiy vaziyatlarda ham tolerantlik omilining yetishmayotganligi va yemirilib borayotganligi bugungi kundagi dolzarb muammolardan biridir. Mazkur muammolarni hal qilish uchun kuchli nazariya va tajribaga asoslangan bilim ko'nikmasini yaratish zarur.

XULOSA.

Yuqorida ta'kidlab o'tgan fikrlarimizning barchasi globallashuv jarayonlarining tolerantlik jarayonlari bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatib beradi. Globallashuv davri uchun tolerantlik milliy – madaniy o'ziga xoslik va betakrorlikni saqlab qolishning yagona yo'li bo'lib qoladi. Chunki aks holda kuchli tomon shunchaki kuchsizga o'z standartlari va qadriyatlarini tizimini o'rnatadi.

Boshqa madaniyat odamiga nisbatan tolerantlik munosabati, past madaniyatli bo'lgan odamga nisbatan bo'lgan munosabatdan tubdan farq qiladi. Har qanday qadr – qimmatni hurmat qilish, qo'pollik, yomon did, odobsizlik, axloqsizlik, zo'rovonlikka har qanday shaklda xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishni anglatmaydi. Bunda tolerantlikning chegarasi bor, umuman olganda, bu hayot, erkinlik, sog'likka tahdid soladigan hamma narsalarga taalluqli emas. Bag'rikenglik sizni hech qanday muammolardan xalos eta olmaydi, bu faqat turli xil shaxslarning tinch – totuv yashash farzidir. Shu bilan birga bugungi kunda madaniyatni rivojlantirish uchun yana bir narsa talab etiladi.

Ajdodlardan meros bo'lib qolgan merosni saqlab qolish va ko'paytirish bo'yicha harakatlardir. Zamonaviy ta'lim tizimi jihatdan, bu muammoni hal qilishda samaraliroq emas. Ko'pgina ta'lim standartlari amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga aniq yo'naltirilgan holda ishlab chiqilgan va axloqiy, estetik, falsafiy ta'limni butunlay chiqarib tashlaydi.

Shunday qilib, globallashuv va tolerantlik fenomenlari bir – biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan kategoriyalar hisolanadi. Bugungi globallashuv davrida tolerantlikni saqlash va uni globallashuv jarayonlari bilan hamohang ravishda shakllantirish hamda bu orqali dunyoda tinchlikni, o'zaro hamdo'stlikni saqlash bugungi asrimizning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mashhur siyosatshunos olim va faylasuf Aristotelning quyidagi fikrlari siyosatshunoslik fanida xususan xalqaro munosabatlarda mashhur konsepsiya hisoblanadi. Uning konsepsiyasiga ko'ra: "Inson boshqa barcha tirik mavjudotlardan oltin oraliq bilan farq qiladi" ya'ni biz ijtimoiy, ongli mavjudot ekanimiz hayotimizda turli xil voqealar yuz berishi mumkin, masalan, turli xil

ixtiloflar, nizolar, urushlar, murosasizliklar kelib chiqishi mumkin. Aynan shunday bir vaziyatlarga duch kelganimizda biz Aristotel tili bilan aytganda, “oltin oraliq” ni topishimiz kerak ya’ni u tomonini ham bu tomonini ham murosaga keltirib yashash bugungi kunda juda xavfsiz va ijobiy omillardan biridir. Bugungi kunda turli mamlakatlar o’rtasida kelib chiqayotgan turli xil nizolar, urushlarning asosiy sababi ham “oltin oraliq” ning buzilishi yoki yo‘qligi hisoblanadi.

Iqtiboslar/References/Сноски

- [1] Саидов С.Ш. Марказий Осиё: фуқаролик жамияти ва минтақавий интеграция муаммолари. – Тошкент, 2021. –Б. 45.
- [2] М. Аминова, М. Рўзиқулова. Глобаллашув асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент., 2016.– Б. 3-5.
- [3] Хажиева М. S. Globallashuv asoslari. Muharrir nashryoti. – Т., – В. 2020. –В, 169-170.
- [4] Оболенский В. Глобализация мировой экономики и Россия // Мировая экономика и международные отношения, 2001. №3, с.23.
- [5] Хантингтон С. Цивилизациялар тўқнашуви. – Т., – В.– 7-8
- [6] Муллағалиева Л.К. Язык толерантности. – Уфа. 2012. 148 с.
- [7] Бабаева Л. В. Толерантност: идея, образы, персоналии. Астрахан. 2009. 228 с.
- [8] Хасанов А. Геосиёсат. “Тамaddun”. Тошкент-2016. –Б. 3-4.



ISSN 2181-0796

Doi Journal 10.26739/2181-0796

KONSENSUS XALQARO JURNALI

4 JILD, 2 SON

INTERNATIONAL JOURNAL OF CONSENSUS

VOLUME 4, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000